

“AMKODOR AGROTEXMASH” Ajga sayohat

“Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakulteti “Suv xo‘jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari bilan “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” kafedra o‘qituvchilari I.Xudaev hamda S.Xolovalar “Amkodor agrotexmash” Ajga sayohat uyushtirildi. Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar natijasi sifatida 2021 yilga qadar qishloq va suv xo‘jaligi texnikalarni ishlab chiqarishni to‘laqonli yo‘lga qo‘yish maqsadida, zavodda izchil harakatlar olib borilmoqda. Mahalliyashtirish darajasini 30% dan oshirish, ishlab chiqarilgan texnikalarga xizmat ko‘rsatish kabi masalalarga nisbatan olib borilayotgan say‘ harakatlar shuningdek, yosh kadrlarga qo‘yilayotgan talab, loyihalashtirish ishlari raqobatbardosh qishloq va suv xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarishdagi ishlarning debochasidir.



Hozirgi kunda kafedraning “Amkodor agrotexmash” Ajda filiali tashkil qilingan. “Suv xo‘jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari kafedra filialiga ajratilgan maxsus zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan o‘quv xonasi hamda bugungi kunda korxonada ishlab chiqarilayotgan mashina mexanizmlar bilan, korxonaning yig‘uv sexi faoliyati bilan bevosita yaqindan tanishdilar. Kafedra o‘qituvchilari hamda korxonada mutaxassislari tomonidan ishlab texnikalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berildi va talabalarda katta taassurot qoldirdi.



**“Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” kafedra stajyor-o‘qituvchisi Sarvinoz Xolova
axboroti**

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov